

— A S Q A D M U X T O R —

JAR

YOQASIDAGI

CHAQMOQ

ASQAD MUXTOR

821.512

84 (50')

М 92

JAR YOQASIDA CHAQMOQ




Qissa va hikoyalar

«NURAFSHON-KITOB-
TA'MINOT»

Toshkent

2022

UO'K: 821.512.133-31
KBK: 84(50')
M - 93



Muxtor, Asqad

Jar yoqasida chaqmoq: qissa va hikoyalar / Asqad Muxtor. –
Toshkent: «Nurafshon-kitob-ta'minot», 2022. – 256 b.

ISBN 978-9943-8129-5-6

Donish ijodkor Asqad Muxtor asarlaridan jamlangan mazkur kitobga adibning qissa va hikoyalari jamlangan. Va aytish joizki, adib qalamga olgan mavzular zamon va makon nuqtayi nazaridan o'lmasdir.

Birovning yillar davomida yig'gan mol-dunyosi qaysi maqsadda ishlatilishidan qat'i nazar boshqalarga buyurmasligini Mamatning ayanchli o'limi misolida, onasining vafotini intiq kutgan – ildizidan ajralgan Maratning alaloqibat sevgilisidan ham ajralib yolg'izlanib qolishi misolida tasvir etarkan, adib hayotning shu kabi gohida achchiq, gohida dars olishga majbur qiladigan taqdirlari bilan kitobxonni yuzlashtiradi.

ISBN 978-9943-8129-5-6

© Asqad Muxtor. «Ildizlar». «Yosh gvardiya», 1984-yil.

© Asqad Muxtor. «Jar yoqasida chaqmoq». «Nurafshon-kitob-ta'minot», 2022-yil.

QISSALAR

JAR YOQASIDA CHAQMOQ

KIRISH

Yillar o'tib, yosh ulg'aygan sari hayotda, ayniqsa, bolaligingda eshitgan-ko'rgan voqealaring, tanigan-bilgan odamlaring xotirada tobora saralanib, nechukdir yiriklashib, mohiyati yuzaga qalqib borar ekanki, kuch-quvvat-u fursat yetsa, ularning har biri haqida kitob yozish mumkin bo'lardi. Farg'onadagi birinchi son bolalar uyida katta bo'lganman. Tengdoshlarimning har bittasi – zamonaga yarashiq g'aroyib bir taqdir, biz kechirgan yillar ibratli voqealarga boy edi. Ma'lumki, bolalik xotiralari bir umrga tatiydi, yetimlikda boshingni silagan odam qiyofasi esa dilga muhrlanib qolarkan.

Men shunday kishilardan birini, uning bizga gapirib bergan sarguzashtlarini tez-tez eslayman. Bu gal ularni sizga ham hikoya qilib bermoqchi bo'ldim.

U uncha yosh emas, ellik oltilarda edi, chamasi. Soch-soqolini toza qirdirib, beliga enlik kamar bog'lab yurganidanmi, bizga yosh ko'rinar, biz uni negadir «Ahmedov aka» deb o'rgangan edik. Qan-shari past, qulog'ining go'shtdor solinchoqlari osilgan, nimdosh do'ppi ustidan qiyig'ini salla qilib,

yoqasi piltali eski gimnastyorka kiyib yuradigan xunukkina odam edi. Ammo, qiziqki, bir umr eshik sanab sang'igan yetim-yesir, nazarimda, faqat shu kishining mehriga sig'inib, faqat shu odam tufayli ochlikka ham, yupunlikka ham ko'nib, yetimxonada muqim qolib ketar edi. Chunki bola desa jonini beradigan odam edi u.

Shirin ovqat yesak, og'iz chapillatishimizdan zavqlanib qarab turar, chehramizda kulgi ko'rsa, yuz-ko'zi charaqlab ketar, kiyimdan ham, o'yindan ham, mehnatdan ham faqat quvonishimizni istar edi.

Ahmedov aka tarbiyachi emas: tarbiyachi bo'lganda uning bolaga mehri haqida ta'kidlab gapirishim, balki, uncha joiz ham bo'lmas edi. Gap shundaki, u bolalar uyida oddiy xo'jalik mudiri bo'lib ishlardi, biz esa murabbiylarimizdan ham ko'ra ko'proq shu kishi atrofida parvona edik. Shu vajdan ba'zi tarbiyachilarimiz bolajon Ahmedov akaga g'ayirlik ham qilishar edi.

Lekin biz baribir shu xunuk odamning soyasiga biqinib, og'ziga tikilganimiz tikilgan edi.

– Bolalarda gap ko'p, – der edi Ahmedov aka qandaydir o'ksik ohangda, – biz, kattalar endi ular-day sofdil, ularday kuchli bo'lolmaymiz. Qolgan kunlarimizni shularga bag'ishlay bilsak, bas. Xususan, mening o'zga niyatim yo'q, qolgan umrim – shular tufayli, hayotim ham – shular, davlatim ham...

1. NO'G'AY MUALLIM

Hali sunbula kirmagan, lekin ertalabki oftobning tafti odamga yoqadigan bo'lib qolgan edi. Bomdod mahali jimjit, katta hovli huvullab yotibdi, somonxonada kecha qulunlagan baytalning qurt-qurt beda chaynagani eshitiladi, xolos.

Tog'dagi cho'pon-cho'liqqa chakmon-chorig'olgani kelgan Mamat tandir yonida qora qurum devorga suyanganicha oftobro'yada cho'nqayib uzoq o'tirdi. Ro'parasidagi tezak-tappi ustida uy-malashgan yalqov pashshalarga, yumalab yotgan cho'yan oftobaga, nariroqdagi hovuz bo'yida chuvalib o'sgan po'panak o'ltarga, qari kundak tolga tikilib xayol surar, ichkarida joynamozga cho'kkan xo'jayinning «borahmatullo»sini kutar edi.

Shu mahal ko'cha eshik g'iyqillab, no'g'ay muallim kirib keldi. Mamat uni ko'klamda ham bir ko'rgan edi: o'sha-o'sha qiltiriq, yupun, tizzasi yirtiq, yelkasida non-don to'la qop-u xurjun, bir qo'lida ikki kajava, bir qo'lida tugun, belbog'ida so'yilgan jo'ja bo'ynidan osig'liq, oyog'ida qat-qat yamoq tushgan toshtovon, soqoli o'sgan, ko'zlari g'aynolidek...

Darvozaxonaga kirishi bilan qaysi bir xaltasi-ning ipi qochib, gardanidagi yuklarni eplolmay qiynalib qoldi: birini qo'ltig'iga qissa, biri tushib ketadi, unisini bog'lasa, bunisi uziladi.

– Hoy, so'poq, qarashvorsang-chi! – dedi u Mamatni ko'rib.

Mamat xalta ko'ylak etagidan tizzalarini zo'rg'a chiqarib o'rnidan turdi-da, poyma-poy chorig'ini qiyshiq bosib, u tomon yurdi. No'g'ay muallim qayerdadir yetimxona ochgan. Ochgan-u, qahatchilik

bo'lib, bolalarni hukumat ham boqolmay qolgan, endi tarbiyachilar qishloqma-qishloq yurib, o'ziga to'qroq odamlardan baqadar imkon u-bu tilab, yetimlarning nasibasini terib yurishibdi. Buni no'g'ay muallim o'tgan safar o'zi gapirib bergan edi.

Mamat uning yelkasidan sirg'alib tushgan xurjunni ko'tarishib, to'rt burchidan tang'ilgan og'ir qopning kanopini ham kiftidan o'tkazib qo'ydi. Inqillab hansirayotgan muallimning jikkak gavdasidan ter, qayish, suzma, po'panak va qoqnon hidi buruqsar edi. Kekirtagi turtib chiqqan ingichka bo'ynini burib: «Borakallo», deb qo'ydi.

Mamat yana oftobro'ya peshayvonning daha-nasiga borib, oyoqlarini osiltirib o'tirdi.

Bu payt unniqib qolgan movut chakmonini yelkasiga tashlab, mehmonxonadan boy ota ham chiqib keldi. Begim-begim deb turadigan kichik xotini to'lg'og'ida o'lib, boy ota biroz odamovi bo'lib qolgan edi. Ichkarida katta xotini ko'pdan buyon ramaqijon, ko'zi ojiz, bir cho'risi bilan yolg'iz o'tirar edi. Boy ham u sho'ring qurg'ur pushti sovuqqa qatnamay qo'ygan. Necha yildan beri ichkari-tashqarining rafti-omadini olgan Mamat bu gaplarning baridan xabardor. «To'rasiylov»ga ulush qo'shma-gani uchun bo'lisning peshvolari boy otani yak-kalab qo'yishganini ham biladi. Boy otasi hozir xilvatnishin, uyqusi yo'q, so'fitabiat bo'lib qolgan. Fikri-zikri ikki bebosh o'g'lida: u betayinlarning biri qizillar bilan ketgan, biri oqlar bilan. Eshik tiq etsa, chakmonini yopinib chiqadi, o'sha beboshlar-dan biron xabar kelmadimi ekan deb.

– Keling, domla, – dedi u no'g'ay muallimni ko'rib, – yetimlarning rizqini dovlab, savob xalta-ngizni yelkalab yuribsizmi?

– E-e, yurtida qut-baraka yo'q, boylarda diyonat qolmadi, taqsir... – muallim qop-u xurjunlarini yerga qo'yarkan, surp ko'ylagining yirtiq joylaridan yelkalari qip-qizil bo'lib shilini ketgani ko'rindi.

– Nechta o'zi bolalardan?!

– Hozir uch yuz-u to'qqizta bo'ldi, taqsir...

– E voh, bu qopchiqlaringiz ularga urvoq ham bo'lmaydi-ku!

– Hay, bir to'yib yesalar ham... – muallimning o'zi ko'pdan beri to'yib ovqat yemagani ko'rinib turardi.

– Bari musulmonmi?

– O'zbak, qirg'iz...

– ...O'zingizni qiynab qo'yibsiz, – dedi boy yukdan bo'shagan muallimning tizzalari qaltiraganini ko'rib. – Muncha to'plamasangiz bu oshxo'r-u jomadarronni?!

– E, siz ularni bir ko'rsangiz edi, boy ota! Anov yili qora o'lat yurti chirqiratib ketdi, bilasiz, ko'cha-ko'yni yetim-yesir bosib... noiloj edik... Endi, mana...

Ha, o'sha musibatli kunlar Mamatning ham yodida. Ro'za ayni saratonga to'g'ri kelib, avval qariyalar tutday to'kildi. Kun lovullab yonar, sho'rlik dehqon dalada yutoqib o'ldimi, vabodanmi – bilib bo'lmasdi. Qishloqni dud, nola, vahima tutdi. Sog'-u dardchil – hammaga teng edi bu balo-qazo. Bo'lmasa, Mamatning dadasi o'ladigan odammidi? Qulochkash polvon der edilar otini, yelkasida yetti qadoqlik ketmon, mardikorlik qilardi, qishda esa g'ishtxumdonda tuyakash...

Ha, hammasi esida Mamatning. Munglig' onasi ham o'lik tepasida bir kecha-yu kunduz faryod

chekib, shu o'tirgan joyining o'zida jon taslim etdi. Ikkalasi, shariatga xilof bo'lsa ham, bir qabrga qo'ydilar. Nima qilsin, go'rkovlarning ham biri o'lib, biri qochgan paytlar bo'lsa, qishloq bir oy deganda huvullab qolgan edi. Kim yetaklab olib chiqib ketdi qishloqdan – faqat mana shuni eslolmaydi Mamat.

O'shandan beri mana shu boy otani biladi. Qo'rasida kunda kavlayotgan mardikorlar bilan bir kosa go'ja ichdi-yu, non-nasiba ekan, shu yerda qolib ketdi. Boy otasi unga ma'qul edi. O'zi bo'z-u alak kiymagan ko'hnabisot boylardan bo'lsa ham, Mamatqulga sarqitini ichirmadi, «sag'irga javr qilganning kosasi oqarmaydi», deya boshini siladi. Olti yoshidan mol ketida yurib katta bo'lgan Mamat ham yolchitib ishlar edi-da.

Hozir u yig'idan ko'zlari shishib shu hovlida paydo bo'lgan kunlarini esladi. Esladi-yu, chuvakina gavdasi titrab-qaqshab turgan anov tilanchi muallimga juda rahmi kelib ketdi. Qopchig'iga bir jomashov tariq to'kkach, uning oriq qo'llarining qaltirashiga qarab turib, boy ota ham so'radi:

– Qayerda o'zi yetimxonangiz?

– Simda, taqsir, Simning o'zida.

Shundan keyin boy ota «uzoq yo'l ekan», deb Mamatga imo qildi. Mamat yugurib kirib, patnisa kulcha non bilan choy olib chiqdi. No'g'ay muallim supaga omonat o'tirib, choyni ichdi-yu, nonni ushatishga ko'zi qiymadi chog'i, u yoq bu yog'ini aylantirib, suq bilan bir yutingach, xurjunidagi boshqa nonlar yoniga solib qo'ydi.

So'ngra Mamat uning tugun-u qopchiqlarini yelkalatib, ter hidi anqib turgan qayishlarini qo'l-tig'idan o'tkazishib qo'ydi. Odamning kiftini shilib tushadigan bunday xalta-xurjunlar Mamatga yax-

shi tanish, el to'plagan qoq non-u halim oshi so'lingan xumcha-yu xaltalar cho'liqlarning gardanidan goho haftalab tushmaydi.

– Ulingiz... bari uvoqmi? – deb so'radi Mamat.

– Bari sendek puchuq, – dedi yukdan bukchayib, halitdan yuziga reza ter qalqqan muallim, ko'sa yuzida jilmayishga o'xshash muloyimlik sezildi.

– Men ham yetimman... – dedi Mamat «siz xafa bo'lmang» deganday tasalli ohangida. Muallim uning dilidagi mehr-oqibat tuyg'usini ham, yolg'izlik, yetimlik mungini ham, nimanidir qo'msash va yurak talpinishini ham sezdi.

– Boy otang hamiyatli kishi, issiq joyingni sovutma, molning yonida o'lmaysan, – dedi bo'sh qo'li bilan yelkasiga qoqib. Shunda cho'liq shoshib qo'yniga qo'l soldi, ancha uringandan keyin, cheti ushatilgan safar zog'orasini chiqarib, muallimga uzatdi. No'g'ay muallim avval olsammi-olmasammi deganday ozgina ikkilanib turdi-yu, keyin shartta olib xurjuniga solarkan, ko'zidan yoshi chiqib ketganiga o'zi ham izza bo'lib, asta jo'nab qoldi.

Boy ota hovli to'rida, Mamat cho'liq darvozaxonada uning ketidan jimgina qarab qoldilar. No'g'ay muallim uzoqda cho'loq tuyaday lo'killab ketib borardi.

2. OLIM BILAN HALIM

Mamat xo'jayinning ahvoliga achinar edi. Mana, no'g'ay muallim ketdi. Hademay Mamat ham jo'naydi. Xurjunga zog'ora non, tuz-turshak, ko'rpaqovuq nina-yu yana allanimalarni joylab, cho'riq-chakmonlarni ham jun arqon bilan tang'ib, tax-

lab qo'yibdi. Tog'da cho'pon-cho'liq uning yo'liga ko'z tikib o'tirgandir. Boy esa yana otabezor o'g'il-larining nadomati bilan yuzma-yuz, yolg'iz qoladi. Yaqindagina atrof-tevarakda jami katta-kichikni o'tqazib-turg'azib yurgan kimsan, «Salim chor-va»ning endilikda dardlashib, ko'ngil chigilini yozadigan bag'rigiryon bir mahrami bo'lmasa-ya, yo ollo?! Qari xotini ichkarida, ko'zi ko'r bo'lsa ham, yanog'idagi pashshaxo'rda dog'iga o'sma surish bilan andarmon benamoz.

– Bahay, boy buva... endi xizmat? – dedi Mamat ketishga ijozat so'rab.

Boy chorvadorlarga xos qozoqi chakmonini yelkasiga tashlab, kuya tushgan surtelpagini boshiga qaqqaytirgancha so'rida xuftonday bo'lib o'tirar edi.

– Menga qara, Mamatqul, juma o'tib borarsan yaylovingga, – dedi u, – ichkari-tashqariga suv purkab, supurib qo'y. Dolonda yo'lpashsha g'ujg'on urib turibdi, birov kelib qolishi bor...

Chiqmagan jondan umid. Birov kelib qolarmi, juvonmarglardan biron xabar yetarmi deb ko'ngli halak. Aslida-ku, u mol-u holga ruju qo'ygan ochofat boylardan emas, mol-u mardumxo'r zolim ham bo'lmagan, otameros mulkini topgan tuyog'ini bolalarimga deb asraydi. O'shalarining ham, xudoyimning ham omonatini eson-omon topshirsam deydi, o'zga muddaosi yo'q.

Hay, yaylov yana qoldi. Tog'dagi yalangoyoq sho'rliklar diydirab, yetti pushtining go'riga g'isht qalab so'kishadi endi Mamatni.

Mamatning bolalikdan odati shunaqa ediki, bir nafas bir joyda bekor tura olmaydi, xayollari ham,

qo'l-oyog'i ham hamisha harakatda. Ichkari-tashqarini yog' tomsa, yalagudek qilib supurib-sidirgandan keyin og'ilxona yo'lagidagi arqon karavotda mushak sabzini qirsillatib yeb, savag'ichdan savat to'qib o'tirdi. Bu hunarni unga Halim o'rgatgan. Aka-ukalarning kattasi. O'n to'qqizga kirganmi-kirmaganmi, hamma ishdan xabardor, aytgani-ni ikki qildirmas, qattiqqo'l edi. «Senga o'xshagan bekorchi tanbalning kasmi bu! O'rgan!» der edi Mamatga. Arqonidan jindak adashsa, suvdan savag'ich olib, «chirs» etib barmog'iga tushirar, kajava mayishibroq ko'rinsa, poshnalik sag'ri etigi bilan tepib, ezg'ilab tashlardi.

Ot jinnisi, uloqchi chavandoz edi Halim boyvachcha. Qo'shqo'rg'ondagi saysxona-yu yilqi bostirmalari o'shaniki. Bichimi yo'g'on, sag'risi supadek to'dakash qorabayirlari o'sha yerda begona ko'zdan yashirin. Uzoq-yovuqdan ko'pkari ovozasi eshitilsa bas, Halimni na otasi, na onasi qishloqda ushlab tura oladi. «Xonazoti ko'pkarida sovrin olibdi», degan shon-shavkatga ishqiboz edi. Otchopardagi chortax ustida o'tirib sovrin ulashadigan pocha-po'stinli boylarga havas qilar, uloqchi ot boqadigan bazzoz bo'laman, der edi. Bitta kiyikday yengil, suluv choykari bo'lardi. Qamchinni tishiga tishlab, o'sha chovkarni minganida o'zini haligi boylarday his qilib, uzangiga oyoq tiragancha qishloqma-qishloq ot choptirib kun o'tkazardi.

Bir kuni yelkasida beshotar, belbog' ustidan o'qdon taqib kelib, egardan sakrab tushdi-yu, ko'pkarilarni tilga olmay qo'ydi. Juda o'zgarib qoldi o'shandan beri, otxonadan chiqmaydi, kamgap. Ba'zan yaxshi ko'rgan chovkarini yakka mix-

24.192 s

Adabiy-badiiy nashr

ASQAD MUXTOR

JAR YOQASIDA CHAQMOQ

Qissa va hikoyalar

Muharrir

Ma'mura QUTLIYEVA

Badiiy muharrir

Sunnat MUSAMEDOV

Dizayner va sahifalovchi

Ma'mura QOSIMXO'JAYEVA

Musahhihlar

Sayyora MELIQO'ZIYEVA

Yulduz O'ROLOVA

Texnik muharrir

Murod ASHIMOV

Litsenziya raqami: № 011232. 2021-yil 8-sentabrda berilgan.

Bosishga 10.07.2022-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108^{1/32}

Bosma tabog'i 8,0. Shartli bosma tabog'i 13,44.

Garnitura «Georgia Pro». Ofset qog'ozi.

Adadi 2000 nusxa. Buyurtma № 17.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Nurafshon-kitob-ta'minot» MChJda tayyorlandi.

Murojaat uchun tel.: (93) 386-03-22, (93) 328-84-97

«Yoshlar nigohi» XK bosmaxonasida chop etildi.
121000, Sirdaryo viloyati A.Temur shoh ko'chasi.



ISBN 978-9943-8129-5-6



9 789943 812956